

Ushbu to'plamda an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari o'rin olgan. Kitobda xorij va respublikamizdagi oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchilar, tarixchilar, islomshunoslar, dinshunoslar, sharqshunoslar, manbashunoslar, san'at va madaniyat tarixi tadqiqotchilari, shuningdek, yosh ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistr va bakalavrlarning ilmiy ishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan.

This book contains the materials of the international scientific and practical conference, that has been instituted as a regular event. It is a collection of papers written on the basis of scientific research by professors, historians, specialists in Islamic and source studies, historians of art and culture, as well as young researchers and doctoral students working in higher and special educational institutions and academic centers in Uzbekistan and abroad.



ISLAMIC CIVILIZATION IN CENTRAL ASIA:
PAST AND PRESENT

MARKAZIY OSIYODA ISLOM SIVILIZATSIYASI:
O'TMISH VA HozIRGI ZAMON



O'ZBEKISTON XALQARO
ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI



RESEARCH CENTRE FOR ISLAMIC
HISTORY, ART AND CULTURE

MARKAZIY OSIYODA ISLOM SIVILIZATSIYASI: O'TMISH VA HozIRGI ZAMON

VI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI

ISLAMIC CIVILIZATION IN CENTRAL ASIA: PAST AND PRESENT

PROCEEDINGS OF THE 6th INTERNATIONAL
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

MARKAZIY OSIYODA ISLOM SIVILIZATSIYASI: O‘TMISH VA HOZIRGI ZAMON

VI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil sentabr, Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi



PROCEEDINGS OF THE 6th INTERNATIONAL
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

ISLAMIC CIVILIZATION IN CENTRAL ASIA: PAST AND PRESENT

September 2025, Tashkent, Republic of Uzbekistan

“O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2025

UO‘K: 28(5-191.2)(093)(06)

KBK: 85.657.317

M 99

“Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi: o‘tmish va hozirgi zamon” [Matn]: VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami / tuzuvchilar guruhi. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2025. – 476 b.

Proceedings of the 6th International Scientific-Practical Conference “Islamic Civilization in Central Asia: Past and Present” / Foreword by Muzaffar Kamilov and Preface by Mahmud Erol Kılıç. Editor: Jasurbek Abduqodirov. - Tashkent: International Islamic Academy of Uzbekistan, 2025. 476 - p.

Mas’ul muharrirlar/Chief Editors:

Irgash Daminov, Ashirbek Mo‘minov, Ne‘matullo Muhamedov

Tahrir hay’ati/Editorial Board:

**M.E.Kılıç, M.Kamilov, A.Mo‘minov, D.Maxsudov, G‘.Rasulov,
N.Muhamedov, A.Hasanov, S.Agzamxodjayev, A.G‘aniyev, N.Nasrullayev,
T.Xatamov, Sh. Toxtiyev, H.Lutfullayev, O. Tangirov, M.Usmonov, S.G‘aybullayev,
Z.Ziynatullayev, G. Sharipova, G.Ahmadjonova, J.Abduqodirov**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘iga muvofiq O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida Islom tarixi, san’ati va madaniyatini tadqiq etish markazi – IRCICA bilan hamkorlikda 2025-yil 16-sentabrda “**Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi: o‘tmish va hozirgi zamon**” VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilindi.

Ushbu to‘plamda an’anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari o‘rin olgan. Unda xorij va respublikamizdagi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi professor-o‘qituvchilar, tarixchilar, islomshunoslar, dinshunoslar, sharqshunoslar, manbashunoslar, san’at va madaniyat tarixi tadqiqotchilari, shuningdek, yosh ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistr va bakalavrlarning ilmiy ishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan.

To‘plamga kiritilgan maqolalarda keltirilgan sana, raqam, fakt va boshqa ma’lumotlar uchun mualliflar javobgardir.

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2025-yil 9-sentabrdagi 02-07/5654-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

ISBN 978-9910-9309-6-6

© “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2025

M.Jumaniyazova. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanlarga va salomatlikka oid qarashlari rivoji	277
B.Pirmuhamedov. Mahmud Zamaxshariyning "Rabi'ul-abror" asarining ma'ruza ilmidagi o'rni	281
J.Karimov. Abdurahmon Jomiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati	284
L.Azimova. Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosining ma'rifiy ahamiyati	287
Г.Шарипова. Вклад ученых Мавераннахра и Хорасана в формирование интеллектуальных основ восточного ренессанса (VIII-XI вв)	290
Y.Sadikov. Alloma Muhammad Sharif va uning merosi.....	293
M.Tursunov. Ibn Obidinning ustozlari va shogirdlari: ilmiy-ma'naviy meros tahlili	296
J.Sotvoldiyev. Forobiy va Amir Temur qarashlarida xavfsiz va barqaror jamiyat asoslari	298
F.Xudonazarov. Markaziy Osiyo allomalarining jahon fani va falsafasi rivojida o'rni	301
S.Sobirov. Mullo Muso Sayramiyning "Tarixi hamidiy" asari Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda muhim manba.....	304
S.Salimova. Mahmud Zamaxshariyning ilmiy-ma'naviy merosi: ustoz-shogird an'anasining davomiyligi.....	307
A.Askarov. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan balog'at ilmi olimlari	310
S.Abdunabiyev. Termiz tasavvuf maktabi namoyandasi Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari	313
J.Abdulhamidov. Yettishahar davlatida islom ulamolari (Muso Sayromiy asarlari asosida).....	316
Sh.Nazirov. Asabiyya va jamiyat: Ibn Xaldun merosi va Markaziy Osiyodagi zamonaviy ijtimoiy rivojlanish.....	318
Z.Rasulova. Muhammad Mirak Toshkandiy ilmiy merosining o'rta asrlar arab tilshunosligida tutgan o'rni	321
S.Asqarova. Burhonuddin Nosiruddin al-Mutarriy: hayoti va ilmiy merosi	323
N.Qobilov. Imom Buxoriyning tarix asarlarida sanadni keltirish metodlari	325
U.Muhammadiyev. Qozi Hasan Moturidiy	329
K.Kholmirezayev. "Mahkamai islom" va uning faoliyati.....	331
Sh.Muhiddinova. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy-ma'naviy merosi	335
F.Abzalova. Mahmud Zamaxshariyning "Nukatu-l-i'rob" asari va al-Farroning "Maoniy-l-qur'on" asarlarining qiyosiy tahlili	337
M.Matchonova. Imom Buxoriy ilmiy merosining tarixiy ahamiyati	340
M.Fozilov. Bobur va Boburiylar sulolasi davrida ilm-fan taraqqiyoti	342
J.Turdimirzayev. Shohruxiya madrasasi	344

III BO'LIM. MARKAZIY OSIYO TARIXIY YODGORLIKLARI EPIGRAFIKASI, SAN'ATI VA ARXITEKTURASI

G'.Rasulov. Madaniy merosni muhofaza qilish: yutuqlar va muammolar	348
S.Bulatov. O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining ichki qismidagi "Qur'on zali" bezaklarining ramziy ma'nolari	352
N.Muhamedov. Toshkentdagi "Mo'yi muborak" madrasasi – islom madaniyatining noyob yodgorligi.....	357

BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASI DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI

THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND KNOWLEDGE DURING THE ERA OF BABUR AND THE BABURIDS

Fozilov Mirashraf Azamatovich

Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va yuridik fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

mirashraf2005@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hamda Boburiylar sulolasi davrida ilm-fan va ma'daniyat, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar masalasi yoritib berilgan. Shuningdek, Boburiylar sulolasi davrida ta'lim tizimi, ma'daniy-ma'rifiy sohalar, adabiyot rivojining madaniy taraqqiyotdagi o'rni ochib berilgan.

⁶⁶⁰ Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Siyaru a'lomi-n-nubalo: 25 jildli. Shu'ayb Arnout tahqiqi. – Bayrut: Doru muassasa ar-risala, 1985. J: 12. B: 400.

⁶⁶¹ Hokim Abu Ahmad Muhammad ibn Muhammad ibn Is'hoq. Al-asomiy va-l-kuna. Yusuf Muhammad Daxil tahqiqi. – Saudiya: Dorul g'urobo, 1994. J: 2. B: 274.

Kalit so'zlar: "Boburnoma", intensiv, taraqqiyot, madaniyat, ong, falsafa

Tarixdan ma'lumki Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo (1483-1530) o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf davlat arbobi, istedadli sarkarda, boburiylar sulolasining asoschisi hisoblanadi. Uning davrida ta'lim-tarbiya hamda ilm-fan rivojiga qilgan e'tibori orqali juda ko'plab sohalar ravnaq topdi. Boburiylar sulolasi XVI asrning ilm-fan taraqqiyoti yo'lidagi roli juda yuqori cho'qqiga yetdi. Boburiylar davriga kelib adabiyot va she'riyatga juda katta e'tibor berilib, buning yorqin misolini Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiy hukmdorlarning asarlari va g'azallar mualliflari ekanliklarida ko'rishimiz mumkin. Zahiriddin Muhammad Boburdan qolgan ijodiy me'rosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari ta'rixi, geografiyasi va etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va adabiy tilning yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma" asaridir. Asarning asli nomi "Boburiya" bo'lsada, uni "Voqeanoma" "Tuzuki Boburiy" "Voqeoti Boburiy" deb atadilar, keyinchalik asar "Boburnoma" degan nom bilan shuhrat qozongan. "Boburnoma" asari o'z davrining eng nodir va qimmatli asari hisoblanadi.

Boburiy hukmdor Humoyun (1508-1556) ya'ni Boburning to'g'ich og'li hisoblanib, u yoshligidan yaxshi ta'lim olgan, harbiy faoliyat va davlatni idora qilish ishlaridan puxta xabardor bo'lgan. Otasi hayotligidayoq, Panipat va Kanva yonidagi janglarda qatnashib ancha tajriba ortirgandi. Hisor, Badaxshon va Sambxol viloyatlarida esa ma'lum muddat hokimyatni ham boshqarib turgan. Bobur vafoti oldidan o'g'li Humoyunni taxt vorisi etib tayinladi [Ильям Л.П. 1998, 33]. Humoyun davrida ham ilm-fan, ma'daniyat va adabiyotning rivojida muhim o'rin egallagan. Humoyun davrida Buxoro va Samarqand kabi mashhur shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida muhim egalladi. Bu yerlarda turli sohalar bo'yicha izlanishlar va tadqiqotlar olib borishdi. Shu jumladan matematika, astronomiya, tarix va tibbiyotda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu davrda ko'plab o'z davrining yetuk olim va mutafakkirlari faoliyat yuritishgan. Humoyun davrida san'at ham yuksak tarzda taraqqiy etdi. Jumladan, tasviriy san'at, musiqa, arxitektura va ko'plab sohalarda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Saroyda ko'plab san'atkor va musiqachilar ham jamlangan edi, bu bevosita ma'daniy hayotni yanada boyitishiga sabab bo'ldi. Humoyun saroyda shoir va olimlarni ham jamlashga muvaffaq bo'ldi. Shu jihatdan Humoyun davrida ham ilm-fan borasida ko'plab e'tibor berilganligini ko'rish mumkin [Turdiyev B.S. 2021. -p.18-22].

Boburiy hukmdor "Buyuk Akbar" ya'ni Akbarshoh (1556-1605) davri ham madaniy yuksalish tarixida o'chmas iz qoldirdi. O'rta asrlarda Boburiy hukmdorlar orasida faqat akbargina Buyuk "Akbar" degan unvonga sazovor bo'ldi. Akbar Hindistonda o'z saltanatini idora etdi. Musulmonlar Hindiston o'z saltanatini o'rnatganlaridan buyon deyarli 350 yildan ortiq vaqt o'tdi. Akbardan avval o'tgan musulmon hukmdorlarining birortasi Hindistonning hatto shimoliy qismini ham to'laligicha egallab ololmagan. Buning ustiga, ularning birontasi ham na davlatni idora qilishning tartibini o'rnatadi oldi va na qo'l ostida boshqa dinda bo'lgan, boshqacha ma'daniyatdagi fuqarolarni adolat bilan boshqara olishning qonuniy asosini yaratib bera oldi.

Tarixdan ma'lumki Akbarshoh o'z davrining eng yetuk va ilimli hukmdorlaridan hisoblanadi. "Buyuk Akbar" hukmdorligi davrida Boburiylar sulolasi o'z qudratining cho'qqisiga erishgan davri hisoblanadi. Akbar davlatda juda katta va samarali islohotlarni amalga oshiradi. Shu bilan bir qatorda Akbar ilm-fan, ma'daniyat, she'riyat va adabiyotni yuksaltirish yo'lida harakat qilgan. Aynan Akbarning Hindistondagi ta'lim islohoti tarixda muhim ahamiyat kasb etadi. Hukmdor nafaqatgina diniy ilmlar bilan emas balki dunyoviy ilmlarni rivojlantirishga intiladi. Uning davrida o'quv markazlarida matematika, falsafa, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlarni rag'batlantiradi. Akbar davrida mamlakatda ko'plab maktab va muassasalar ochiladi. Bu bilan bir qatorda maktab va madrasalarda yangi o'quv dasturini ham joriy etadi. Akbarning yana bir eng katta islohotlaridan biri bu diniybag'rikenglik o'z siyosatida amalga oshiradi, bu esa o'z navbatida xalqning e'tiborini

MARKAZIY OSIYODA ISLOM SIVILIZATSIYASI: O‘TMISH VA HOZIRGI ZAMON

VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

qozonadi. Akbarshohning diniy bag‘rikenglikni isloh etgani, uning aql-zakovatli va hur ilmi hukmdorligini ko‘rsatadi. Akbarning bu islohotlari natijasida xalqning turmush sharoiti, ma‘naviy ongi va ijtimoiy holati yuksalishiga xizmat qildi. Akbarning bunday sa‘y-harakatlari hozirgi zamon uchun ham o‘rnak va tahsinga sazovordir.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Bobur va boburiylar sulolasi tomonidan madaniy va ma‘naviy islohotlar natijasida, mamlakatda aholi farovonligi, ularning turmush sharoitlari va bunyodkorlik yuksak taraqqiy etdi. Boburiy hukmdorlar xalqning ta‘lim tizimini isloh etib, aholining dunyoqarashini oshirishda ta‘lim va madaniyat sohasidagi islohotlarni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdilar. Bugun ushbu sulola vakillarining nafaqat mintaq, balki jahon xalqlari ma‘naviy, madaniy va ma‘rifiy taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi bilan har qancha faxlansak arziydi. Ularning bunyodkorlik va yaratuvchanlik islohotlari mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim poydevor sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати. -Тошкент: Маънавият, 1998. 168-б
2. Turdiyev B.S. The Strategy of Cultural Development in Central Asia during Amir Temur and Temurids Dynasty Reign. Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IJSR), 5(1), 2021. -p.18-22.

* * *